

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Moskva, 1996.
2. Kulin A.V. Kurs frazeologii. Moskva, 1996.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. Moskva, 2001.
4. Stepanov Yu.S. Konstanty. Moskva, 2004.
5. Burger H. Phraseologie. Berlin, 2010.
6. Humboldt W. von. On Language. Cambridge, 1988.
7. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford, 1997.
8. Sapir E. Language. New York, 1921.
9. Whorf B.L. Language, Thought and Reality. Cambridge, 1956.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent, 1992.

---

**Ma’rifat Xusanova**, FarDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) <http://orcid.org/0000-0003-2736-2346>

[xusanovamarifat84@gmail.com](mailto:xusanovamarifat84@gmail.com)

**Ruxshona Toshpo‘latova**

FarDU filologiya fakulteti talabasi



---

### USMON AZIM TARJIMALARI LINGVOPOETIKASI XUSUSIDA (BORIS PASTERNAKNING “HAMLET” SHE’RI MISOLIDA)

<https://zenodo.org/records/18766921>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning tarjimalari lingvopoetik tahlilga tortiladi. Shoirning tarjima jarayonida qo‘llagan uslubi, badiiy-estetik yondashuvi hamda lingvopoetik imkoniyatlarni qay darajada saqlab qola olgani hamda yarata olgani ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi semantik, sintaktik va uslubiy tafovutlar hamda ular orqali yuzaga keladigan poetik uyg‘unlik masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotda Usmon Azimning ijodiy tafakkuri, milliy va jahon adabiyoti o‘rtasidagi bog‘lanishlari, shuningdek, tarjima jarayonida milliy ruhni ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Usmon Azim, tarjima, lingvopoetika, badiiy tarjima, poetik uyg‘unlik, milliy ruh, uslub, adabiy jarayon, yangi matn yaratish.

### ON THE LINGUOPOETHICS OF USMAN AZIM'S TRANSLATIONS (ON THE EXAMPLE OF BORIS PASTERNAK'S POEM “HAMLET”)

**Abstract:** This article examines the translations of the People's Poet of Uzbekistan, Usman Azim, in a linguopoetic analysis. The poet's style, artistic and aesthetic approach, and the extent to which he was able to preserve and create linguopoetic possibilities in the translation process are scientifically examined. The semantic, syntactic, and stylistic differences between the original text and the translation text, as well as the issues of poetic

harmony arising from them, are also analyzed. The study examines the creative thinking of Usman Azim, the connections between national and world literature, and his unique aspects in expressing the national spirit in the translation process.

**Keywords:** Usman Azim, translation, linguopoetics, literary translation, poetic harmony, national spirit, style, literary process, creation of a new text.

## **О ЛИНГВОПОЭТИКЕ ПЕРЕВОДОВ УСМАНА АЗИМА (НА ПРИМЕРЕ ПОЭМЫ БОРИСА ПАСТЕРНАКА «ГАМЛЕТ»)**

**Аннотация:** В данной статье проводится лингвопоэтический анализ переводов произведений народного поэта Узбекистана Усмана Азима. Научно исследуются стиль поэта, его художественно-эстетический подход, а также степень сохранения и создания лингвопоэтических возможностей в процессе перевода. Анализируются также семантические, синтаксические и стилистические различия между оригинальным и переводным текстами, а также возникающие из них вопросы поэтической гармонии. В исследовании рассматривается творческое мышление Усмана Азима, связи между национальной и мировой литературой, а также его уникальные особенности в выражении национального духа в процессе перевода.

**Ключевые слова:** Усман Азим, перевод, лингвопоэтика, литературный перевод, поэтическая гармония, национальный дух, стиль, литературный процесс, создание нового текста.

### **Kirish (Introduction)**

Adabiyot va tarjima jarayoni insoniyat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Badiiy tarjima nafaqat asarning mazmunini, balki uning ruhini, ohangini, obrazlar tizimini va estetik qiymatini ham boshqa tilda ifodalashni talab etadi. Shu bois tarjima lingvopoetikasi masalalari zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllangan.

Oʻzbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodi va tarjimalari ushbu sohada diqqatga sazovor manbalardan biridir. U oʻzining sheʼriy ijodi bilan bir qatorda, tarjimon sifatida ham milliy adabiy tafakkur rivojiga munosib hissa qoʻshgan. Uning tarjimalarida asliyat matniga sodiqlik, milliy ruhni ifodalash, badiiylikni saqlash hamda oʻziga xos uslubiy yangilanish jarayoni yaqqol namoyon boʻladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Bu oʻrinda Xurshid Davronning suhbat jarayonidagi fikrlarini keltirish oʻrinli: “Tarjima milliy adabiyotgina emas, milliy tafakkurning ham rivojiga beqiyos taʼsir koʻrsatadigan omildir. Kimdir tarjimani milliy himoya qurollaridan biridir deganda ming karra haq edi. Dunyo adabiyotida mavjud har qanday asar tarjima boʻlganadagina milliy mulkka aylanadi. Ungacha begona boʻlgan matn tarjimadan keyin tilimiz va madaniyatimiz uchun “ishlay” boshlaydi. Shu maʼnoda adabiyotimiz tarixida Shekspirni oʻzbek mulkiga aylantirgan Choʻlpon, Pushkinni oʻzbekcha soʻylatgan Mirtemir-u Asqad Muxtor, Lermontovning “Iblis” ini oʻzbek dostoni deb oʻylashga majbur qilgan Usmon Nosir, Yeseninni oʻzbekniki qilgan Erkin Vohidov, Nozim Hikmatni ong-u shuurimizga singdirgan Rauf Parfi, Lorkani oʻzbek yuragiga olib kirgan Shavkat Rahmon va bir qator mutarjimlarning xizmati beqiyosdir.[7.2].

### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Usmon Azimning tarjimalarining lingvopoetik oʻziga xosligi, avvalo, soʻz tanlashda, ritm va ohangni saqlashda, obrazlar tizimini moslashtirishda yaqqol koʻrinadi. Shoir

tarjimada oddiy ma'no ko'chirishdan ko'ra, asl matnning ruhini o'zbek tilida qayta yaratishga intiladi. Bu bilan muallif bevosita idiosstilini ham "yuqtiradi".

### **Tahlil va natijalar (Analysis and result)**

Bu jarayonda lingvopoetik elementlar so'zning ohangdorligi, metafora, tashbeh, parallelizm va takrorlarning tabiiy qo'llanishi asosiy rol o'ynaydi. Bu haqida tarjimonning o'zi shunday deydi: "She'r original yaratilgan tilga juda bog'langan va boshqa tilda uni tamoman qayta yaratishga to'g'ri keladi. Tarjimondan esa shoirlarga teng iste'dod talab qilinadi."

[6.2]. Uning Boris Pasternak ijodidan qilgan tarjimasiga e'tibor qarataylik:

### **HAMLET**

G'ovur tindi. Sahnaga chiqdim.

Tirab eshik **toqiga manglay**,

Tinglayapman **moziyni**, tokim

Nelar kechar asrimda – anglay.

Tarjimonning mahorati shundaki, she'riy matn xuddi o'zbek tilida yozilganday taassurot beradi. Buning uchun shoirning o'zi ta'kidlaganidek, she'r "tamoman qayta yaratilgan". Poetik matnda o'zbek tilida tarixiylik bo'yog'i, ta'siriyliigi yuqori bo'lgan **toq** (gumbaz yoki arka emas), **manglay** (peshona emas), **moziy** (o'tmish yoki tarix emas) so'zlarning tanlanishi she'rning poetikigini, tantanavorligini ta'minlagan.

Qorong'ulik menga o'qtalغان,

Minglab durbin poylar betma-bet.

Egam, bunday taqdir azaldan,

Mumkin bo'lsa, meni ozod et.

O, naqadar niyating o'jar!

Men bu rolga roziman, biroq

Hozir o'zga tomosha kechar –

Bir bor tutgin rejangdan yiroq.

Ushbu misralarda esa metaforaning "Qorong'ulik menga **o'qtalغان**, Minglab durbin poylar **betma-bet**" shaklda ifodalanishi matnning ekspressivligini oshirib, fikrning shiddatli yetib borishiga xizmat qilgan. **Yuzma-yuz** emas, **betma-bet** shakldagi juft so'z esa salbiy munosabatni yanada bo'rttirgan. Yaratguvchi zotga Egam deb murojaat qilinishi esa qahramon tuyg'ularini sharq xalqlariga xos e' tiqodga yanada yaqinlashtiradi. Keyingi to'rt qatorlik matn ham to'liq metafora asosiga qurilgan bo'lib, lirik qahramon- nutq egasining ichki iztiroblarini yaqqol aks ettiradi.

Ammo sahna **zabti** ziyoda,

Qo'zg'oladi oqibat zavol.

Bir o'zimman. **Dunyo – riyoda.**

Yashash og'ir umrni **halol.** (Boris Pasternak).

Matn so'nggidagi misralardagi hech qaysi birlikni "joyidan siljitishning iloji yo'q". Jumla o'zbekcha qolip bilan yangi yozilgandek, hech qachon boshq tilda yaratilmagandek taassurot beradi. Tarjimon zabt - "bosib olmoq" so'zini ziyoda so'zi bilan birga shu qadar o'rinli qo'llaganki, bir vaqtda ham badiiylik, ham ohangdorlik, ham musiqiylik, ham ma'no kuchaytirilishiga erishilgan.

"Bir o'zimman. Dunyo – riyoda. Yashash og'ir umrni halol" deganda esa haqiqiy o'zbekona, xalq qalbiga yaqin, imon-e'tiqodi chuqur, salobatli insonni gavdalantiradi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendation)**

Xulosa qilib aytish mumkinki, shoir tarjima jarayonida nafaqat matnni o'zbekchaga o'giradi, balki unga o'z estetik dididan ham qo'shadi. Bu holat esa yangi poetik talqin paydo bo'lishiga olib keladi.

Usmon Azim tarjimalarida lingvopoetika asliyat va tarjima o'rtasidagi estetik ko'prik vazifasini bajaradi. U so'z tanlashda milliy ruhni uyg'unlashtiradi, ritm va ohangni saqlaydi, obrazlarni qayta talqin qiladi va she'riy tuyg'uni o'zbek o'quvchisiga begona bo'lmagan shaklda yetkaza oladi.

Tarjimonning lisoniy boyligi natijasida chet el adabiyoti namunalarida o'zbekona ohang sezilib, o'quvchiga yaqin poetik muhit hosil bo'ladi. Bemalol aytish mumkinki, Usmon Azim o'z tarjimalari orqali milliy adabiyotimizga yangi badiiy ranglar olib kirgan, jahon adabiyotini xalqimiz ruhiga moslashtirib, uni o'zbek tilining boy imkoniyatlari bilan uyg'unlashtira olgan ijodkor sifatida qadrlanadi.

Shu bois uning tarjimalari nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki lingvopoetik tahlil uchun ham muhim manba hisoblanadi. U yaratgan poetik uyg'unlik tarjimaning milliy va jahon adabiyoti o'rtasida mustahkam ko'prik bo'lishini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Karimov N. Tarjima san'ati va adabiy jarayon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2010.
2. Qo'chqorov A. Badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
3. Rasulov I. She'riy tarjimalar lingvopoetikasi. – Toshkent: Akademiya nashr, 2018.
4. Jo'rayev B. O'zbek adabiyotida tarjima an'analari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
5. Usmon Azim. She'r va tarjimalar. – Toshkent: Sharq, 2020.
6. <https://ziyouz.uz>
7. <http://kh-davron.uz> [murojaat sanasi. 10.02.2026].